

Korxonalar (tashkilot, muassasalar)lar uchun qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish.

№ 11/30 -sonli SHARTNOMA

2022 y "18" subaprel

Farg'ona shahar

Bundan buyon matnda, "Ijrochi" deb ataluvchi korxonalar, Nizom asosida faoliyat olib boruvchi "FARG'ONA TOZALIK SANITAR SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan rahbar A.Tursunov bir tomondan va bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi raxbar _____

ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar :

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 "Buyurtmachi" topshiradi, "Ijrochi" esa shartnomada ko'rsatilgan haq evaziga "Buyurtmachi" tomonidan maxsus belgilangan joyga yig'ilgan QMCh (qattiq maishiy chiqindilar)ni tashib chiqib ketishni o'z zimmasiga oladi. "Buyurtmachi" esa xizmat to'lovlarini to'lab berishi shart.

1.2. Q.M.CH umumiy xajmi bir oyga _____ m³, bir yilga _____ m³ tashkil etadi.

1.3. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx 15 foizlik QQS bilan xar bir m³ QMCh uchun 46.000 so'm,

1.4. Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov summasi 3360000 so'm.

2. "BUYURTMACHI"NING MAJBURIYATLARI

2.1 Q.M.Ch qattiq maishiy chiqindilarni quyidagi ko'rsatilgan manzilga, ya'ni Servis markazi 1405 olib chiqib tashlash.

2.2 Yirik xajmdagi chiqindilar va shox-shabballarni tashib ketish uchun alohida haq evaziga bir marotabalik shartnoma tuzish.

2.3 QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilishini doim nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan xollarda +998 91 276 12 76 telefoniga telefonogramma yo'llash orqali "Ijrochiga" ma'lumot berish.

2.4. O'z.Res.Prezidentining 22.11.2018 yildagi 5580-sonli Farmoniga asosan QMChni olib chiqib ketish xizmati bo'yicha to'lovlarni "Ijrochi"ga 100 foiz oldindan to'lash asosida amalga oshirish.

2.5. Buyurtmachi kadastr xujjatidagi ko'rsatilgan kv.m maydonini yozma ravishda ko'rsatilishi shart. To'lovlar (kv.m yoki reys) bo'yicha xisob kitob qilinadi.

2.6. Buyurtmachi maishiy chiqindilarni markaziy ko'chalarning belgilangan joylariga kech soat 18:00 dan ertalabki 06:00 gacha olib chiqib tashlash.

3. "IJROCHI"NING MAJBURIYATLARI

3.1. Shartnomada ko'rsatilgan QMCh tashlanadigan maxsus manzildan chiqindilarni maxsus avtomashinalarda jadval asosida olib chiqib ketilishini ta'minlash.

3.2. "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik xajmdagi chiqindilarni, shox-shabballarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.

3.3. Har oy boshiga o'tgan xisobot oy uchun shartnoma asosida "Buyurtmachi" xisob raqamiga to'lov talabnomasini yuborish.

3.4. "Buyurtmachi" tomonidan QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilmagani to'g'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida ko'rsatilgan manzildan chiqindilarni olib chiqib ketish.

3.5. Biriktirilgan yo'nalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatdan keltirilgan xar bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmaga summaning 0.4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida "Ijrochi"ga penya to'laydi. Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida QMCh olib chiqib ketilmasa, "Buyurtmachi" jamoatchilik ishtrokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos xisoblanadi.

4.2. "Ijrochi" o'z vaqtida QMCh olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCh xajmi qiymatidan

0.5% miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50%dan oshmagan miqdorda "Buyurtmachi"ga peniya to'laydi.

4.3. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan mudatdan kechiktirilgan xar bir kun uchun belgilangan mudatda to'lanmagan summaning 0.4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida "Ijrochi"ga peniya to'laydi.

4.4. Jarima va peniya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5.QO'SHIMCHA SHARTLAR

5.1. "Ijrochi" xom-ashyo, yoqilg'i-moylash maxsulotlarni va eng kam oylik va ish xaqi miqdori o'zgarishi munosabati bilan belgilangan tartibda bir tomonlama xizmat narxlarini o'zgartirishga xalidirdi va u "Buyurtmachi"ni bu to'g'rida yozma ravishda ogohlantiradi.

5.2. SHartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan QMCHning xajmi o'zgargan taqdirda, Ijrochi tegishli tartibda hujjatlarni rasmiylashtirib, olingan QMCHning xajmini ko'rsatgan holda Buyurtmachiga qaytaxisob kitob qilish uchun taqdim etadi.

5.3. Fors-major xolati sodir bo'lgan tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlardan ozod etiladilar. (korxonaning tugatilishi, raxbar yoki javobgar shaxs o'zgarishi, moliyaviy qiyinchilik kabilar fors-major xolatiga kirmaydi).

5.4. Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelgan muammolar tomonlarning o'zaro muzokaralari orqali xal qilinishi mumkin bo'lmagan xollarda tumanlararo iqtisodiy sudlar tomonidan xal qilinadi.

5.5. Tomonlarning manzili, korxonasi nomi, xisobot raqami o'zgargan taqdirda xamda QMCH hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar paydo bo'lganda bir tomon ikkinchi tomonga 10 kun ichida yozma ma'lumot berishi shart.

5.6. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan QMCHning xajmi "Buyurtmachi"ning aybi bilan taqdim etilmasa yoki "Buyurtmachi" "Ijrochi"ning yuk tashish xujjatlarini rasmiylashtirishdan bosh tortsa "Ijrochi" jamoatchilik vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma ish to'liq miqdorda bajarildi deb xisoblanishiga va to'liq miqdorda to'lov amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

6.SHARTNOMANING MUDDATI

6.1. Ushbu shartnoma muddati "15" 01 2022 yildan "31" 12 2022 yilgacha belgilanadi.

6.2. Shartnomani mudatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu xaqida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi aks xolda shartnoma shartlari o'z kuchini yo'qotmagan xisoblanadi.

6.3. Tomonlar shartnoma muddati tugaganidan so'ng yozma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilgunga qadar o'z kuchini yo'qotmagan xisoblanadi.

6.4. Shartnoma O'z.Res. Vazirlar Maxkamasining 06.02.2019 yilgi №95-sonli Qaroriga ko'ra qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalariga asoslanib 2 nusxada tuziladi, ular bir xil qonuniy kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

7. TOMONLARNI YURIDIK MANZILI VA RIKVIZITLARI

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
"FARG'ONA TOZALIK SANITAR SERVIS" MCHJ	ATB "Qishloq qurilish bank" Farg'ona mintaqaviy filiali
A.Navoiy 37 a uy 2 xona	Manzil: 1990900030000501003
X/r:20208000900292474001	X/r: MFO:00501 INN:200202883
Farg'ona Milliy bank	Bank: OKPO:15785107 OKONK:96/20
MFO: 00493 INN: 302803976	Farg'ona sh. Al Farg'oniy k-si 07-uy. MFO: Tel:73 INN:20/1
Tel: (97) 501-0106	Tel:
Raxbar: Tursunov	Raxbar:

Huquqshunos

M.Hakimov

[Handwritten signature]